

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

32-mavzu: “Innovatsion fikrlash”

Darsning maqsadi:

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda yangicha, ijodiy va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar, raqamli tafakkur va yangilik yaratishga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

Annotatsiya: Ushbu mashg‘ulot davomida o‘quvchilar innovatsion fikrlash mohiyatini anglaydilar, oddiy fikrlashdan innovatsion fikrlashning farqini tushunadilar, turli vaziyatlarda kreativ yechim topish ko‘nikmalarini mashq qiladilar. “Kreativlik”, “yangilik”, “g‘oya”, “startup”, “innovatsiya” tushunchalari bilan tanishadilar. Dars davomida guruhli ish, muammoli vaziyatlar, video lavhalar va interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilarda kelajak kasblari va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqish orttiriladi.

Aniq maqsadlar:

1. “Innovatsiya” va “ijodiy fikrlash” tushunchalarini anglash.
2. Yangicha fikrlashning ahamiyatini hayotiy misollar orqali tushuntirish.
3. O‘quvchilarda ijodiy, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
4. Shaxsiy tashabbus va g‘oyalarni ilgari surish, jamoada yangilik yaratish madaniyatini shakllantirish.

Metapredmet yondashuv: “Innovatsion fikrlash” mavzusida turli fanlararo bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi:

- **Texnologiya:** Yangi mahsulot va g‘oyalar yaratish.
- **Matematika:** Muammolarni mantiqiy tahlil qilish.
- **Adabiyot:** Fikrni badiiy ifodalash.
- **Informatika:** Raqamli fikrlash va texnologik ijod.
- **Ijtimoiy fanlar:** Inson va jamiyatdagi o‘zgarishlarni tushunish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Kerakli jihozlar:

- qog‘ozlar, rangli qalamlar;
- qadoq qutichalar, har xil oddiy buyumlar;
- slayd yoki kartochkalar (ixtiyoriy).

I.KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga kiradi va oddiy buyumlarni stol ustiga qo'yadi. Masalan, plastik idish, qalam, qog'oz stakan. Yoki ushbu buyumlarning suratini monitorga chiqarish ham mumkin.



O'qituvchi: Bolalar, bular nima?

O'quvchilar: Plastik idish! Stakan! Ruchka

O'qituvchi: Yo'q... unday emas.

Sinfda hayrat paydo bo'ladi. Kimdir kuladi, kimdir yana diqqat bilan qaraydi.

O'qituvchi: Sizlar buyumning birinchi qarashda esga keladigan odatdagi nomini aytdinglar. Men esa unga boshqacha qarayapman. Keling, birgalikda o'ylab ko'ramiz: bu oddiy buyumlar yana nimaga aylanishi mumkin?

Bolalar asta-sekin javob bera boshlaydi. Kimdir gul idishi deydi, yana kimdir o'yinchoq, birov soch to'g'nag'ich, boshqasi qalamdon. Har bir javob qabul qilinadi.

O'qituvchi: Zo'r! Yana-chi? Yana qanday foydali narsaga aylantirish mumkin?

Endi bolalar yanada faolroq fikr yurita boshlaydi. Javoblar ko'payadi, tasavvurlar kengayadi.

O'qituvchi: Endi shartni biroz o'zgartiramiz. Bu buyumlarni shunday narsaga aylantiringki, ulardan ko'p odamlarga foyda kelsin. Kim aytadi, yana nima yasash mumkin bulardan?

Shunda javoblar yanada mazmunli tus oladi: gullarni sug'orish, qushlarga yem berish, suvni tejash, gulning tagini yumshatish...

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, bolalar... biz hozir oddiy narsaga boshqacha qaradik. Hamma ko'rgan narsani boshqacha ko'rishga harakat qildik. Bu innovatsion fikrlash deyiladi.

Innovatsiya bu faqat yangi narsa o‘ylab topish emas. Ba’zan mana shu oddiy narsalarni yangi ko‘z bilan ko‘ra olish ham innovatsiyalar, ya’ni ko‘pchilikka foydali yangiliklar yaratishga olib keladi. Bugungi darsimizda biz innovatsion fikrlash nimaligini o‘rganamiz.

Innovatsiyalar – bizdan uzoqdagi murakkab narsalar emas. Ular har kuni biz bilan birga. Ular hayotimizni qulay, charog‘on va mashaqqatsiz qiladi. Keling hozir shu haqidagi bir videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Ixtirolar hayotimizni qay darajada o‘zgartirdi?

<https://youtu.be/S79QjBUH24g>

O‘qituvchi: Demak, bolalar, bilib oldingizki, innovatsiyalar insonlarning hayotini yaxshi tomonga o‘zgartiradigan yangiliklar ekan.

Biz darsimiz boshida oddiy narsani boshqacha ko‘rishga harakat qildik. Bugun darsimiz davomida shu qobiliyatni o‘stirishga harakat qilamiz. Sizlar kichik ixtirochi rolida bo‘lasiz. Umid qilamanki, dars oxiriga kelib sizlar ham o‘z g‘oyalaringiz bilan atrofdagi narsalarni o‘zgartira olishingiz mumkinligiga ishonch paydo bo‘ladi. Kelajakda orangizdan ajoyib ixtirochilar chiqishiga bugungi darsimiz turtki bo‘lar, balki.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘qituvchi doskaga yozadi: **INNOVATSION FIKRLASH**

O‘qituvchi: Keling, bu qanday fikrlash ekanini birgalikda tushunib olamiz. Innovatsion fikrlashning **birinchi belgisi** – yangilik. Ya’ni, u avval hech o‘xshashi bo‘lmagan butkul yangi narsa bo‘lishi kerak. Sizlar hozir oddiy plastik idishdan umuman boshqa, yangi narsalar yasashni o‘ylab topdingiz-ku. Shunga o‘xshash.

Ikkinchisi – foydalilik. Innovatsion g‘oya odamlarga yordam berishi, og‘irini yengil qilishi kerak. Sizlar aytgan plastik idishdan gul sug‘orishda foydalanish, qalamlarni bir joyda to‘plab saqlab turish kabi g‘oyalar aynan odamlarga yordam beradigan g‘oyalar edi.

Uchinchi belgisi – g‘oyaning amalda ishlashi, ya’ni, uni rostdan ham amalga oshirish, qilish mumkin bo‘lishi kerak. Sizlar plastik idishdan kosmik kema yasashni o‘ylab topishingiz ham mumkin, lekin uni qilib bo‘lmaydi, fazoga uchirib bo‘lmaydi-ku, to‘g‘rimi? Demak, bu g‘oya ishlamaydi.

To‘rtinchisi – innovatsion g‘oya qiymat yaratishi kerak. Ya’ni uni ishlab chiqarib sotish va iqtisodiyotga foyda keltirish mumkin bo‘lishi kerak. Buning uchun u real foyda keltirishi, ya’ni kimningdir vaqtini tejashi, suvni, energiyani

iqтisod qilishi, odamlarning hayotini saqlab qolishi va shu kabi real foydasi bo‘lishi lozim.

Beshinchisi – innovatsiya keng tarqalishi lozim. Yaxshi g‘oyani boshqalar ham ishlatadi. Keng tarqaladi. U faqat o‘zingizga emas, jamiyatga foyda keltiradi.

Hozir shunday g‘oyalar yaratishni o‘rgatadigan maskanga sayohat qilamiz.

Vizual kontent

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga keldik

<https://youtu.be/-ZiUcSErPA0>

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, bolalar, katta bo‘lganingizda nimadir ixtiro qilaman desangiz, mana shunday dunyoning yetakchi universitetlari filiali o‘zimizda ham bor. Sizlar u yerda o‘qib yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishingiz mumkin. Buning uchun esa, avvalo, hozir maktabda yaxshi o‘qishingiz kerak.

Endi sizlarga bir savol: nima deb o‘ylaysizlar, innovatsiya o‘zi nima uchun kerak?

Keling, buni oddiy misollar orqali tushunamiz.

Bir vaqtlar odamlar juda ko‘p kasalliklardan aziyat chekardi. Ko‘p kasalliklar bolalarni mayib qilardi. Shunda olimlar: “Qanday qilib odamni kasallikka chalinmasidan oldin himoya qilish mumkin?” deb o‘ylanib qolishdi. O‘ylab-o‘ylab, vaksinalarni kashf qilishdi. Bu millionlab odamlarning hayotini saqlab qoldi. Olimlar kasallikning hujayrasini o‘ldirib, undan odamni himoyalovchi dori yaratishdi. Bu haqiqiy innovatsion fikr edi, chunki kasallik hujayrasidan davolovchi maqsadda foydalanish g‘oyasi yangilik bo‘lgan.

Yana bir misol. Bugun sizlar ota-onangiz yoki boshqa qarindoshlaringiz bilan gaplashish uchun telefondagi messenjerdan foydalanasiz, u esa internet orqali ishlaydi. Xabarni bir zumda yetkazadi. Bir paytlar odamlar uzoqdagi odam bilan gaplashish uchun kunlab, hattoki oylab xat kutishar edi. Tasavvur qiling, siz do‘stingizga xat yozasiz, javobi esa bir oydan keyin keladi. Juda noqulay, to‘g‘rimi? Keyin internet paydo bo‘ldi. Endi esa siz bir soniyada gaplasha olasiz, yana internet orqali ko‘p narsani bilib olasiz. Demak, bu innovatsiya sizning bugungi hayotingizni ancha osonlashtirgan.

Tasavvur qiling, siz suv kam bo‘lgan joyda yashaysiz. O‘simliklar qurib ketyapti. Suvni tejash kerak, ammo qanday? Shunda kimdir tomchilab sug‘orish usulini o‘ylab topadi. Endi juda kam suv bilan ham ekinlar o‘sadi. Bu esa odamlar och va suvsiz qolmasligiga sabab bo‘ladi.

Endi ayting-chi, agar mana shu innovatsiyalar o‘ylab topilmaganida, bizning hayotimiz qanday bo‘lardi?

Bolalar javob beradi: kasal bo‘lardik, uzoq kutardik, qiynalardik...

To‘g‘ri. Demak, innovatsiya – bu insonlar hayotini yaxshilaydigan katta kuch. Endi sizlar bilan ixtirochilar o‘yinini o‘ynaymiz.

O‘qituvchi doskaga 3 ta so‘zni yozadi.

“Muammo – Buyum – Yechim”

O‘qituvchi: Hozir men sizlarga bir muammoni aytaman. Siz esa shu muammoni hal qilish uchun oddiy buyumdan yangi g‘oya topasiz. Tayyormisiz?

Sinfjonlanadi.

O‘qituvchi: Demak, birinchi muammo: yozda juda issiq, lekin sizda ventilyator ham, konditsioner ham yo‘q. Qo‘lingizda oddiy qog‘oz bor. Nima qilasiz?

Bolalar turli javoblar bera boshlaydi: yelpig‘ich qilish, buklab sovitish, soyabon qilish...

O‘qituvchi: Zo‘r! Sizlar hozir oddiy qog‘ozdan yangi yechim topdingiz.

Ikkinchi muammo: qorong‘i joyda kitob o‘qimoqchisiz, lekin chiroq yo‘q. Sizda telefon va oddiy qog‘oz bor. Nima qilasiz?

Bolalar yana o‘ylaydi, kimdir fonar yasash, qog‘oz orqali nurni yo‘naltirish kabi usullarini aytadi.

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, bolalar... sizlarga yangi narsa berilmadi. Siz faqat bor narsadan yangi yo‘l topdingiz. Mana shuni haqiqiy innovatsion fikrlash deyiladi.

Innovatsiyalar hamisha ham katta laboratoriyalarda tug‘ilmaydi. Ba‘zan u mana shu sinfda, sizlarning miyangizda ham paydo bo‘lishi mumkin.

Balki hozir shu sinfda o‘tirgan kimdir kelajakda odamlar hayotini o‘zgartiradigan yechim topadi.

Kelinglar, shu o‘rinda haqiqiy innovatsiyalarni yaratgan zamondoshimiz fikriga quloq tutamiz. Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Chikago universiteti talabasidan innovatsion fikrlash formulasi

<https://youtu.be/maGAcDHAq7E>

O‘qituvchi: Ko‘rganingizdek, innovatsiyalar osmondan tushmaydi. Buning uchun yaxshi davralarda bo‘lish, ko‘p o‘qish, hadeb telefonda o‘tiravermay, aqlli insonlar, tengdoshlar bilan muloqot qilish kerak.

Men ishonamanki, har biringizning ichingizda kichkina ixtirochi yashayapti. Sizlar to‘g‘ri savollar bilan uni uyg‘otsangiz kifoya. U yangi g‘oyalarni albatta o‘ylab topadi.

III.YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolalar, bugun biz juda muhim mavzuni o‘rgandik. Biz oddiy narsaga boshqacha qarashni sinab ko‘rdik. Ko‘rdikki, aslida har bir oddiy buyum ichida yashirin imkoniyat bor ekan.

Bu shunchaki plastik idish emas, balki yangi imkoniyat bo‘lishi mumkin. Buyumdan imkoniyatni esa siz g‘oyangiz orqali yaratasisiz.

Hayot shunday: kimdir muammoni ko‘radi, kimdir esa yechimni topadi.

Innovatsion fikrlash har qanday muammoga “qanday yechim topish mumkin?” deb savol berishdan kelib chiqadi. Eng muhimi – taslim bo‘lmaslik, o‘ylashdan to‘xtamaslik. Har biringizning ichingizda kichik ixtirochi bor. Faqat uni uyg‘otish kerak. Hammasi bitta narsadan boshlanadi: boshqacha fikrlashdan.

Endi sizlarga kichik, lekin juda qiziq vazifa. Uyg‘a borgach, atrofingizdan bitta oddiy buyumni tanlang. Masalan, qoshiq, daftar, paket yoki o‘yinchoq. O‘ylab ko‘ring: uni qanday qilib yangi, foydali narsaga aylantirish mumkin? O‘zingiz ixtiro qiling. Agar xohlasangiz, rasmini chizib keling yoki gapirib berishga tayyor bo‘ling. Eng qiziq g‘oyalarni keyingi darsda birgalikda ko‘rib chiqamiz.

Endi esa hammamizga yoqadigan musiqiy daqiqalarga navbat beramiz. Qani, o‘rnimizdan turamiz. Hozir birgalikda go‘zal diyoringiz haqidagi qo‘shiqni karaoke uslubida kuylaymiz. Qani, tayyormisizlar? Boshladik!

Vizual kontent

“Yayra, O‘zbekiston” – karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/553

O‘qituvchi: Mana, mazza qilib qo‘shiq kuylab kayfiyatimizni yanada ko‘tarib oldik. Shu bilan bugungi darsimiz nihoyasiga yetdi.

Esda tuting, bolalar: innovatsiya uzoqdan kelmaydi. U sizning fikringizdan boshlanadi. Balki eng zo‘r g‘oya aynan sizniki bo‘ladi. Fikrlashdan, yangilik o‘ylab topishdan qo‘rqmang va charchamang.